O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

BUXORO AMIRLIGINING MA’MURIY- HUDUDIY TUZILISHI VA DAVLAT BOSHQARUVI XUSUSIDA

Raxmatov Xayrulla Bozorboevich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
xayrulla.raxmatov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amirligining ma’muriy-hududiy tuzilishi (1753/1920y.), davlat hududining kengayib borishi, davlat boshqaruvi, tashqi siyosiy diplomatiya va qo‘shni davlatlar bilan aloqalari xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, unda Buxoro amirlari tomonidan amalga oshirilgan turli sohadagi islohotlarning hozirgi kundagi davlat masalalarini yanada chuqur o‘rganishdagi tarixiy ahamiyati va amirlik ijtimoiy-siyosiy tuzumining asosiy xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: vassal, ashtarxoniylar, Mang‘itlar sulolasi, bekliklar, bek, amirlik, daha, chegara, miyonqol, otaliq, amlokdor, Turkiston general-gubernatorligi, kenagas, yuz, mingboshi, hazora, tanob, Zarafshon vohasi.

Milliy o‘zlikni anglash har bir millatning hayotida nihoyatda katta o‘rin egallaydi, chunki u o‘zining o‘tmishini teran anglash asosida bugunini ham to‘g‘ri va atroflicha bilib olishga erishadi va shu bilan birgalikda o‘z kelajagini aniq belgilab, rivojlanish yo‘liga o‘tib oladi. Milliy o‘zlikni anglash davlat, jamiyat va xalq uchun qanchalik ahamiyatli va muhim ekanligi haqida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday ta’kidlagan edi: “Millat o‘zligini to‘la anglagan taqdirdagina buyuk o‘zgarishlar qilishga qodir bo‘ladi” [7:65].

Hozirgi kunda milliy o‘zlikni anglash orqali xalq, millat vakillari qancha o‘z tarixini chuqurroq bilishga erishsalar, shuncha ular ko‘prok tarixiy voqealar asosida xalqining o‘tmishni anglab oladilar. Milliy o‘zlikni anglash orqali, o‘tmishda xalqimiz duch kelgan muammolarni va ularning qanday hal qilinganligini bilib olish, shubhasiz bugungi kundagi muammolarni to‘g‘ri va tezrok hal qilinishiga yordam beradi va jamiyatimizning taraqqiyotini tezlashtiradi.

Vatanimiz tarixidan bizga ma’lumki, O‘rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi (1753/1920y.) alohida mavqeiga ega bo‘lgan, katta hududlarni egallagan davlat edi. Manbalarda ta’kidlanishicha, XVIII asrning o‘rtalariga kelib Buxoro amirligi hududlarida birmuncha o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Mazkur davrda Buxoro hukmdorlari o‘z tasarruflarida Buxoro shahri va uning tevaragidagi Vobkent, G‘ijduvon, Qorako‘l, Vag‘oza tumanlari, Qashqadaryo va Miyonqol vohalarini saqlab qololgan edilar. Xo‘jand, Toshkent, Hisor vaqti-vaqti bilan esa G‘uzor, Shahrisabz, Nurota, shuningdek Amudaryoning o‘ng sohilidagi Balx, Andxo‘y, Maymana, Badaxshon va Shibirg‘onlar ham Buxoroga vassal bo‘lishiga qaramay unga itoat etmay qo‘yganlar. Siyosiy parokandalikning asosiy sababi- so‘nggi ashtarxoniylar davridagi o‘zaro kurashlar, markazdan qochuvchi kuchlar mavqeining o‘sishi edi.

Darhaqiqat, XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ya’ni mang‘itlar sulolasi hukmronligi o‘rnatilgach, Buxoro amirligi yana asta-sekin mustahkamlana boshlaydi.

Shu asrning 70-80 yillariga kelib Buxoro amirligining markaziy hududini Samarqand va Buxoro shaharlarini o‘z ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilar edi. XIX asrning boshlarida Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surxon vohasi, Hisor, Xo‘jand, O‘ratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan tumanlar, Janubiy Turkmanistonning katta qismi, jumladan Chorjo‘ydan to Murg‘ob daryosigacha bo‘lgan hududlar kirar edi. Bu davrda Buxoro amirligi hududlarining kengayishiga asosiy sabab- mang‘itlar sulolasining markazlashgan davlat barpo etishga intilishi edi. XIX asr boshlarida Buxoro amirligi bir tomondan Eron va Afg‘oniston, ikkinchi tomondan Xiva xonligi, uchinchi tomondan qozoq juzlari va to‘rtinchi tomondan Qo‘qon xonligi hududlari bilan chegaradosh edi.

Ko‘p asrlar davomida musulmon dunyosining muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib kelgan Buxoro mang‘itlar sulolasi (1753/1920) davrida ham shu maqomini saqlab qolishga intildi. Biroq, Ashtarxoniylar davlatining tanazzulga yuz tutishi oqibatida Buxoro xonligining hududlari ancha qisqarib qolgan edi. Ma’lumki, XVIII asrning boshida Farg‘ona vodiysi Buxorodan ajralib chiqadi va Qo‘qon xonligi tashkil etiladi. Siyosiy tarqoqlik va ichki nizolar ayniqsa ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi vakili Abulfayzxon (1711/1747) davrida o‘zining cho‘qqisiga yetdi. U o‘z hukmronligining so‘nggi yillarida davlat ishlarini yuritishni mang‘itlar urug‘iga mansub bo‘lgan otaliq Muhammad Hakimbiy ixtiyoriga topshirib qo‘ygan edi. Muhammad Vafo Karmanagiyning yozishicha, Hakimbiy otaliq Eron shohi Nodirshoh (1736/1747)ning Buxoroga bosqinini hokimiyatni egallash uchun qulay fursat deb bilgan. Nodirshoh vafotidan so‘ng otaliqning o‘g‘li Muhammad Rahim 1747-yilda Abulfayzxonni qatl ettirib, Buxoro taxtini egallaydi. Muhammad Rahimning qilmishlaridan norozi bo‘lgan viloyat hokimlari unga qarshi isyon ko‘taradilar. Mazkur qo‘zg‘olonlar shafqatsizlik bilan bostiriladi. 1757 yili u o‘zini amir deb e’lon qildi va shu bilan Buxoroda mang‘itlar sulolasiga asos solindi [8:408].

Mang‘itlar sulolasi asoschisi, g‘ayrat va shijoatli Muhammad Rahimxon Buxoro taxtini egallashi bilan asosiy e’tiborni oxirgi Ashtarxoniylar davrida zaiflashib qolgan markaziy hokimiyatni kuchaytirish, amirlik yerlarini kengaytirishga harakat qiladi. Ammo uning amakisi amir Doniyolbiyning (1759/1785) yumshoq tabiatidan foydalangan o‘zbeklarning kenagas, yuz, barqut, saroy kabi yirik qabilalari beklari markaziy hokimiyatga qarshi qo‘zg‘olonlar uyushtirishlari oqibatida uning hukmronligining oxirlarida mamlakatda ahvol nihoyatda og‘irlashib ketadi.

Amir Doniyolning o‘g‘li Shohmurod (1785-1800) hali otasi hayotligidayoq uning talabi bilan davlat ishlarini o‘z qo‘liga olib, mamlakatda tartib o‘rnatishga kirishadi. Humuliyning yozishicha, bu davr Doniyolbiy hukumronligining oxirgi 6-7 yilliklariga to‘g‘ri keladi [1:201-208].U sulola asoschisi Muhammad Rahimxonning markazlashtirish siyosatini davom ettirdi. Amir Shohmurodning davrida Buxoroda ma’muriy, moliyaviy, harbiy va sud islohotlari o‘tkazildi. Shohmurod tashqi siyosat borasida ham qattiqqo‘llik bilan ish yuritib, Nodirshoh istilosidan keyin Buxorodan ajralib chiqqan janubiy hududlarni qaytadan Buxoro davlati tasarrufiga kiritdi. U 1785-1801 yillar mobaynida bir necha marta Eron va Afg‘on qo‘shinlariga qarshi jang olib bordi va mamlakat hududlarini Chorjo‘y, Karki, Marv hisobiga kengaytirdi.

Keyinchalik Buxoro hukmdori Amir Haydar (1800-1826) Buxoro taxtiga o‘tirishi bilan O‘ratepa, Shahrisabz, Samarqand hokimlari va qabila boshliqlarining g‘alayonlari boshlanib ketadi. Shu kabi harakatlar Buxoroda hukmdor almashishi davrida deyarli har doim takrorlangan. Ayniqsa, 1821/1825 yillarda Miyonqolda yashovchi xitoy-qipchoqlar boshchiligida bo‘lib o‘tgan g‘alayonlar ommaviy tus olgan. G‘alayon tafsilotlari o‘sha davr manbalari asosida P.P.Ivanov tomonidan keng o‘rganilgan [2]. Amir Haydar Jizzax va O‘ratepa uchun Qo‘qon xonlari bilan, Chorjo‘y va Marv uchun Xorazm xoni Eltuzar (1804-1806) bilan bir necha bor janglar olib bordi. Umrining oxirlariga kelib u ichki va tashqi raqiblarining qarshiligini sindirishga erishdi [3:90].

Amir Haydar vafotidan so‘ng taxt uchun bo‘lib o‘tgan qisqa muddatli janglarda uning uchinchi o‘g‘li Nasrulloh (1826-1860) g‘alaba qozonib, Buxoro taxtiga o‘tiradi. Nasrulloh otasi amir Haydardan farqli ravishda mamlakatda ichki tartib o‘rnatish va davlat boshqaruvini amalga oshirishda nihoyatda qattiqqo‘llik bilan ish tutdi. Uzoq yillik hukmronligi davrida u bir necha bor Qo‘qon va Xiva xonliklariga qarshi muvaffaqiyatli yurishlar uyushtirdi.

1860 yilda amirlik taxtiga Sayyid Muzaffar (1860-1885) chiqadi. U o‘z hukmronligining dastlabki yillarida mamlakatni mustahkamlash va uning sarhadlarini kengaytirish borasida birmuncha harbiy harakatlar olib boradi. Sayyid Muzaffar Hisorga ikki marta qo‘shin tortib, Darvoz, Ko‘lob, Baljuvongacha bo‘lgan yerlarni o‘z hududiga qo‘shib oldi, Shahrisabzni bo‘ysundirib, keyinroq Qo‘qon xonligini tobe qildi.

Podsho Rossiyasi qo‘shini 1864 yildan boshlab O‘rta Osiyo hududlariga yurish qilib, qisqa fursat ichida Qo‘qon xonligiga qarashli Chimkent va Toshkent shaharlarini egallaydi. 1866-1868 yillar orasida esa Buxoro amirligining Buxorodan Zirabuloqqacha bo‘lgan hududlari bosib olinadi. Amirlikning Jizzax, O‘ratepa, Xo‘jand, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on kabi yirik shaharlari 1867-yilda tuzilgan Turkiston general-gubernatorligi ixtiyoriga o‘tadi. Amir Muzaffar 1868-yilda Rossiya bilan sulh shartnomasini imzoladi va Buxoro amirligi Rossiya davlatining vassaliga aylanadi.

Buxoroning so‘nggi amiri, podsho Rossiyasiga tobe bo‘lgan Sayyid Amir Olimxonning 1927-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, XX asr boshiga kelib Buxoro mamlakati Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya’ni, Rossiya Pomiridan to Xivaning keng davlatlarigacha cho‘zilib boradi. Buxoro shimol tarafdan Qizilqum sahrosi bilan, g‘arb tarafdan Sirdaryo hamda Xo‘qand xonligi bilan, janubda esa Afg‘oniston, Sharqda turkman o‘lkasi hamda Xiva dashti bilan chegaradosh bo‘lgan.

Amirlikning ma’muriy-hududiy tuzilishiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, XIX asrning 50-yillarida Buxoro amirligi bir necha viloyatlardan tashkil topgan. Ulardan Buxoro va Samarqand o‘z navbatida tumanlarga bo‘lingan edi. Viloyat hukmdorlari “hokim” deb atalgan. Keyinchalik viloyat o‘rniga bekliklar paydo bo‘lgach, ularning hukmdorlari “bek” deb atalgan. Yangi ma’lumotlarga ko‘ra, bu davrda Buxoro amirligida 44 ta beklik mavjud bo‘lgan.

Mahalliy ma’muriyat namoyondalari mavzeni qishloq va masjidlardan kattaroq hududiy bo‘linma deb ta’riflanganligini tadqiqotlar natijalari tasdiqlaydi. Misol uchun, Karki viloyati mavzelarga bo‘linsa ham ular o‘z navbatida bekchalarga

bo‘lingan, bekcha qishloqlardan iborat bo‘lgan. Pomir viloyatlaridagi Ro‘shon va Shug‘non ma’muriy tumanlari oqsoqollik deyilgan. Aholi istiqomat qiladigan joylar manbalarda uchta atama-qishloq, mavze, daha nomlari orqali qayd etilgan.

Ma’lumki, XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Qarshi shahri Buxoro amirligi tarkibidagi 27 ta beklikdan biri edi. Ma’muriy-hududiy jihatdan amirlik quyidagi 27 beklikka bo‘lingan: Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog‘, G‘uzor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjo‘y, Hisor, Ko‘lob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Shug‘non-Rushon, Qo‘rg‘ontepa, Qobodiyon, Kalif, Bo‘rdaliq, Qobog‘li va Xorazm. Har qaysi beklik amir tomonidan tayinlangan hokim – beklar tomonidan boshqarilgan. Bekliklar esa amlokdorliklarga bo‘linib, ularni amlokdorlar yoki shohlar idora qilgan. Amlokdorlar beklar tomonidan tayinlangan, shohlar esa aholi tomonidan saylanib, so‘ngra beklar tomonidan tasdiqlangan. Amlokdorliklar aminliklarga bo‘linib, u ma’muriy bo‘linmaning eng quyi bo‘g‘inini tashkil etgan. Aminliklarni o‘zbeklarda “mingboshi”, tojiklarda “arbob” deb ataluvchi, aholi tomonidan saylab qo‘yilgan oqsoqollar boshqarganlar [5: 63-64].

O‘rganilayotgan davrda Buxoro amirligi hududi oldingi asrlarga nisbatan birmuncha qisqarib ketgan bo‘lib, amirlik hududi Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Janubiy Tojikiston, Chorjuy viloyatlari va yana bir necha tumanlarni o‘z ichiga olib, mahalliy aholini asosan o‘zbek, tojik va turkman, qisman esa qozoq va qoraqalpoqlardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, amirlikning janubi-sharqiy chekkalarida- Badaxshon tog‘lari daralarida o‘nlab sharqiy eroniy tilli aholi yashagan. O‘zbek va tojiklar asosan o‘troq aholi bo‘lib, shahar va qishloqlarda yashagan bo‘lsalar, turkman, qozoq va qoraqalpoqlar, o‘zbeklarning chorvador qismi dasht va cho‘llarda yashab, ularning turmush tarzida ko‘chmanchilik va yarim ko‘chmani hayot tarzi ustuvor bo‘lgan.

Ta’kidlash joizki, Buxoro amirligidagi joy nomlarining aksariyati o‘zbek urug‘lari (mang‘it, nayman, saroy, qipchoq, bahrin, batosh, qarluq, qatag‘on, qo‘ng‘irot, xitoy, burqut, barlos, durman va b.) bilan bog‘liq bo‘lib, bugungi kungacha saqlanib qolgan qishloq, ovul va mahalla nomlarining ko‘pchiligi ushbu etnonimlarga borib taqaladi. Mazkur aholi manzillarining bunday nomlanishida o‘zbek urug‘larining Buxoro amirligi davrida yoppasiga o‘troqlashuvga o‘ta boshlashi bilan izohlashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek davlatchiligi tarixini chuqur o‘rganar ekanmiz, xususan Buxoro amirligi davlatchiligi tarixida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni keng jamoatchilikka yetkazish orqali jahon davlatchiligi tarixida o‘z o‘rniga ega ekanligini hech shubhasiz e’tirof eta olamiz. Birgina misol, Buxoro amirligida amalga oshirilgan soliq-huquqiy islohotlarga taalluqli bo‘lgan huquqiy hujjatlar davlat ro‘yxatidan (reestr) o‘tkazilgan. Albatta, davlatchilik tarixining o‘zi, amalga oshirilgan islohotlarning huquqiy asosga ega ekanligini, ushbu harakatlarning rasmiy jihatdan to‘liq amalga oshirilganligini nazarda tutadi. Bunday harakatlarni amalga oshirish uchun huquqiy hujjat sanalgan xabarnomalar (arizalar) orqali barcha bajarilgan ishlarning rasmiy hujjati soliqqa oid huquqiy hujjatlar ro‘yxatlarida (reestr)da yozib qoldirish orqali o‘z ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жумақули Ҳумулий. Тарихи Ҳумулий. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, №37.
2. Иванов П.П. Восстание китай-кипчаков в Бухарском ханстве 1821-1825 гг. // Труды института Востоковедения АН ССР, вып. XXVIII. М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1937.
3. Кюгельген А. Легитимация Среднеазиатской династии Мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). Алмати: Дайк-пресс, 2004.
4. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари (тасниф, текстлар ва луғат). Т.: Фан, 1969.
5. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1: Территория и населения Бухары и Хорезма. Часть 1: Бухара. Т.: Туркпечать, 1926.
6. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари / Масъул муҳаррир: А. Муҳаммаджонов. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005.
7. Каримов И.А.. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т.: Ўзбекистон, 2000.
8. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т.: “Ўқитувчи”, 1994.
9. Рахматов Х., Набиев Ш. Хіх асрнинг сўнгги чораги–хх аср бошларида бухоро воҳаси сиёсий-маъмурий бирликлари ва аҳолиси хусусида //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 605-608.
10. Bozorboevich R. K. The Ethnic Structure of the Population of the Bukhara Emirate //International Journal on Integrated Education. – Т. 4. – №. 12. – С. 8-12.

YOSHLAR TARBIYASIGA HUQUQIY, AXLOQIY VA SIYOSIY MADANIYATNING UZVIY ALOQADORLIGI

Kamolov Dostonbek Rustam o‘g‘li
O‘zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali
kamolov.dostonbek@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat va huquqiy madaniyat tushunchalariga ta’rif belgan. Xususan, yoshlar huquqiy madaniyati xususida olimlarning qarashlari keltirilib o‘tilgan. Qolaversa, jahon fanlari miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarning 3 guruhi, ya’ni: antropologik, sotsiologik va falsafiy yondashuv haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, huquqiy madaniyat, yoshlar, yondashuv, demokratiya, axloq.

Kirish

«Huquqiy madaniyat» - keng ko‘lamli, ma’nodor tushunchadir. Uning tahlili maxsus tadqiqot mavzusini taqazo qilishi mumkin va tabiiydir [1]. Yoshlar huquqiy madaniyatini o‘rganish, uning o‘ziga xos tomonlarini aniqlash jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarni alohida-alohida o‘rganish zarurligi nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Yoshlar huquqiy madaniyati tushunchasi